

## “CHOLIQUISHI” – IZTIROB ROMANI

**Parizoda Axrorxo‘jayeva**

*Farg‘ona davlat universiteti*

*adabiyotshunoslik yo‘nalishi 1-kurs magistranti,*

**Mahmudaxon Dadajonova**

*Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani*

*16-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada kitobxonlarga “Choliqushi”, “Tamg‘a”, “Iztirob” romanlari bilan yaxshi tanish bo‘lgan turk yozuvchisi Rashod Nuri Guntekinning “Choliqushi” asari tahlil etiladi. Roman qahramonlari, asarning yozilish tarixi va sababi, Faridaning ichki kechinmalarini anglatadigan syujetlarning ayrimlari, roman uslubi va asarning badiiy-g‘oyaviy maqsadiga to‘xtalib o‘tiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Turk jumhuriyati, xarakter, Farida, Qushadasi, so‘zlashuv uslubi, ta’lim masalasi.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируется произведение «Чоликуши» турецкого писателя Рашода Нури Гунтекина, романы которого «Чоликуши», «Тамга», «Изтироб» хорошо известны читателям. Будут обсуждаться персонажи романа, история и причина написания произведения, некоторые сюжеты, отражающие внутренние переживания Фариды, стиль романа и художественно-идеологическая цель произведения.*

**Ключевые слова:** *Турецкая Республика, характер, Фариды, Кушадасы, стиль речи, проблема образования.*

**Annotation:** *This article analyzes the work "Choliqushi" by the Turkish writer Rashod Nuri Guntekin, whose novels "Choliqushi", "Tamga", "Iztirob" are well known to the readers. The characters of the novel, the history and reason for writing the work, some of the plots representing Farida's inner experiences, the style of the novel and the artistic and ideological purpose of the work will be discussed.*

**Key words:** *Republic of Turkey, character, Farida, Kushadasi, speech style, education issue.*

Shunday asarlar bo‘ladiki, bir o‘qishdayoq qalbingizdan joy oladi. Qahramonlar xarakteri, fe‘l-atvori, ularning kechmishlarini o‘qib “men haqimda ekan-ku”,-deb yuborganingizni bilmay qolasiz. Turk adabiyotining durdona asarlaridan biri bo‘lgan “Choliqushi” ham mana shunday asarlardan biridir. Rashod Nuri Guri



Guntekin ushbu asarda ayollar ruhiyati, ularning qalb kechinmalari, iztiroblari, o'yxayollarini mahorat bilan aks ettirgan. "Choliqushi" romani bo'lib o'tgan voqealarga asoslangan bo'lib, asarda tilga olingan qahramonning hayotiy ismi Feride Po'latdir. Bugungi kunda Qushadasidagi uyi restavratsiya qilingan. Yozuvchi ushbu romanni dastlab "Istanbul qizi" nomli to'rt pardali sahna asari sifatida yozgan.

"Choliqushi" romanida bo'lib o'tgan voqealar XX asrning ilk choragiga tegishlidir. Feridening Qushadasida yashagan paytda Birinchi jahon urushi dahshatlari asarda ham ko'rinish bermasdan qolmagan. Yozuvchi XX asr boshlaridagi turk xalqi hayotini ko'p jihatdan mohirona yoritib bera olgan.<sup>31</sup>

"Choliqushi"ni shunchaki bir ishqiy roman bo'lib qolishidan qutqargan, an'anaviy sevgi-muhabbat mavzusida yozilgan boshqa asarlardan farqi ayni paytda romanning o'sha davr ijtimoiy holatidan ham hikoya qilishidir. Romanning sotsial jihatini yoritib bergan keng ma'noli so'z bu Onado'ludir. Bu so'zning mantiqiy dunyosi ichida ham shu hudud hamda shu hududda yashagan insonlar va ularga tegishli muammolar joy olgan. Asarda Onado'lu va u yerda yashagan insonlar hayotiga nazar tashlaganimizda yo'qsillik, jaholat, yashash zavqidan mahrumlik kabi holatlarga duch kelamiz. Feride bir muddat yashagan Zaynilar qishlog'i tasvirlari nafaqat Onado'lu, balki o'sha davrda hukumat tepasida bo'lgan Usmonli iqtidorining haqiqatlarini ham ko'z oldimizda qip-yalang'och namoyon qiladi. Zaynilar qishlog'i tasvirida asosan "yakkam-dukkam kulbalar", "taxta uylar", "cho'ka boshlagan qop-qora vayronalar", "u yer bu yerda tutab yotgan yong'in xarobalari" kabi ifodalar qo'llanilgan. U yerdagi o'quvchilar ahvoli ham juda achinarli edi.

'zi ham muallim bo'lgan yozuvchi roman qahramoni Ferideni ham o'qituvchi tarzida gavdalantirib, asarda ta'lim-tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Romanda an'anaviy ta'lim-tarbiya tushunchasi va yangi ta'lim berish shakli orasida kurash yuzaga keladi. Zaynilar qishlog'idagi Hadicha xonim o'qituvchilik qila oladigan darajada yetarli bilimga ega emas, o'quvchilarni uradi, o'lim tahlikasini targ'ib qiladi, dars paytida o'quvchilarni yerga o'tqizib, baland ovozda o'qishga majbur qiladi, bo'yi yetgan qizlarning o'qishiga qarshi chiqadi. Yangi ta'lim tizimida yetishib chiqqan Feride esa Hadicha xonimning amallariga butunlay qarshi bo'lib, o'quvchilarni o'zi bilgan metodda o'qita boshlaydi. Bolalarni ketma-ket o'tqizadi, shovqin qilishlariga yo'l qo'ymaydi, katta yoshli qizlarga ham ta'lim beradi, o'lim tahlikasini yo'qqa chiqarishga urinib, yashash zavqini targ'ib qiladi.

O'sha davrda ta'lim sohasidagi tanqid qilingan yana bir jihat o'qituvchi maoshining juda kamligi edi. Feride Onado'luda ishlab yurgan paytlarida onasidan

<sup>31</sup> c



qolgan qimmatli buyumlarini sotib kun ko'radi, puli tugaganda esa hatto och qolgan vaqtlari ham bo'ladi: "Men muallimlikni ochlikdan o'lmaslik uchun qabul qilgan edim. Hisobim to'g'ri chiqmadi. Bu kasb bir kun ochlikdan o'ldirishi hech gap emas".<sup>32</sup>

Asarda Choliqushi – Feride TurkiYA jumhuriyati uchun namuna bo'la oladigan obrazdir. Farida sho'x, shaddod, tirishqoq, shu bilan birga g'ururli, o'zini o'zgaga xafa qildirib qo'ymaydigan obraz. Aynan mana shu jihatlari Turkiya jumhuriyati tarbiyalamoqchi bo'lgan yoshlar siymosidir.

Choliqushi voyaga yetgan qiz bo'lsa-da o'ta sodda, mug'ombir, kattalarni ham o'z do'stidek ko'radi. Misol uchun gilos terish voqeasini eslaylik:

- Siz xunukmisiz qizim?

- Nimalar deyapsiz? Nima, men o'zimni bilmaymanmi? – dedim. - Qiz degan ham shunaqa bo'larmishmi? Qizga uzun bo'y, sariq soch, moviy yoki yashil ko'zlar lozim...<sup>33</sup>

Ushbu jumlar Faridaning shaddodligi, o'zligini o'zgan yashirmasligini, har bir vaziyatni boricha qabul qiladigan va favqulodda yechim o'ylab topa oladigan qiz ekanligidan darak beradi. Dastlab u otgan gilos danagi qo'shnisining burniga tegish, buning ustiga o'zini kulgidan tiyolmay o'zini namoyish etib qo'yishi, keksaning qalbiga so'zlari xatti-harakati bilan yo'l topishi, " – R o'molchaga parvo qilmang... Hali burnimni artganim yo'q. Top-toza" deb biroz quvlik, biroz hijolatlik, biroz aybdorlik bilan gilos uzatishi ham uning bor xarakterini ochib berolgan.

Romanda nafaqat ishq-muhabbar, ta'lim, balki mehr-muhabbat mavzusiga ham katta e'tibor berilgan. Doktor Hayrullobey, Ehsonbey, Munisa obrazlari orqali Faridaning naqadar taqdirga ko'nuvchi, o'z orzularidan kechsa-da g'ururidan, xotira va sevgisidan kechmaydigan, eng ayanchli ishlarni qilsa ham sabr-bardosh bilan bariga chidaydigan, ertangi kundan yorug' bir nur, pok bir umid, mo'jiza kutadigan jasur qiz ekanligi o'quvchiga anglatiladi.

Ammo daftarining so'nggi sahifasiga yetganida sevgilisi Kamronga muhabbati uchun kurashmaganidan, g'urur deb baxtini boy berganidan pushmonligini aytadi.

Romanning bu qadar sevimli, bu qadar ko'ngilga yaqin bo'lishiga sabab uning hayotiyiligi, his-tuyg'ular va syujetlarning kutilmaganligi, rang-barangligi, yozuvchi mahorati va asarning sodda, so'zlashuv uslubida yozilganligi deb o'ylayman. Bu roman qahramonlari kitobxonlarning idealiga, yaqin dugonasiga, balki sevgilisiga, dushmaniga ham aylanib ulgurgan. B albatta so'z sehri, adabiyot mo'jizasi emasmi?!

<sup>32</sup> Чоликуши. Рашод Нури Гунтекин. "Янги аср авлоди". –Т.: 2013

<sup>33</sup> Чоликуши. Рашод Нури Гунтекин. "Янги аср авлоди". –Т.: 2013



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ulug'ov Abdulla, "Adabiyotshunoslik nazariyasi", T.:G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi, 2018
2. Hakimov B, Xoliqova N. Rashod Nuri Guntekin "Chloiqushi" asari badiiy-falsafiy xususiyatlari. Central Asian academic journal. Volume 2.
3. Чолиқуши. Рашод Нури Гунтекин. "Янги аср авлоди". –Т.: 2013
4. <https://daryo.uz/2019/09/24/muallimlikni-ochlikdan-olmaslik-uchun-qabul-qilgan-edim-hisobim-togri-chiqmadi-choliqushi-romani-haqida>
5. <https://ziyouz.uz>
6. <https://kh-davron.uz>

